



ISSUES OF IMPLEMENTING IFRS 1 ("Presentation of Financial Reporting") STANDARD IN COMMERCIAL BANKS ON THE EXAMPLE OF "ASAKABANK" JSC"

Author: Ruziyev Elyor Zafar oğlu

Master Student Of The Academy Of Banking And Finance

Article history:		Abstract:
Received:	7 th July 2025	In recent years, one of the important areas of reforms implemented in the process of modernization of the banking and financial system of Uzbekistan is the issue of adapting the accounting and financial reporting system to international standards. International Financial Reporting Standards (IFRS) help increase investment attractiveness, provide transparent and comparable information for investors, creditors and the general public. In this regard, IFRS 1 - the standard "Presentation of Financial Reporting" is of particular importance in the activities of commercial banks.
Accepted:	6 th August 2025	

Keywords: Asakabank" JSC"

"ASAKABANK" AJ MISOLIDA TIJORAT BANKLARIDA 1-SON BHXS ("MOLIYAVIY HISOBOTNI TAQDIM ETISH") STANDARTINI JORIY ETISH MASALALARI"

Muallif: Ro'ziyev Elyor Zafar o'g'li

Bank-Moliya Akademiyasi Magistranti

So'nggi yillarda O'zbekiston bank-moliya tizimini modernizatsiya qilish jarayonida amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) investitsion jozibadorlikni oshirishga, investorlar, kreditorlar va keng jamoatchilik uchun shaffof va taqqoslanadigan axborot taqdim etishni ta'minlaydi. Shu jihatdan 1-son BHXS – "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" standarti tijorat banklari faoliyatida alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qaror va farmonlari hamda Markaziy bankning me'yoriy-huquqiy hujjatlari asosida Buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari (BHXS)ni joriy etishning huquqiy bazasi yaratildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son Qarori moliya sektorida xalqaro standartlarni bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilab berdi. Mazkur qaror asosida tijorat banklarida BHXSni amaliyotga tatbiq etish jarayonlari uchun aniq yo'l xaritasi ishlab chiqildi. Shuningdek, 2020-yil 24-iyuldagi "2020—2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmoni esa ushbu jarayonni

yangi bosqichga ko'tardi. Mazkur Farmon bilan milliy buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish, kadrlar salohiyatini oshirish va axborot tizimlarini modernizatsiya qilish vazifalari belgilandi. Farmonda shuningdek, tijorat banklari rahbariyati uchun moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar asosida yuritish bo'yicha aniq majburiyatlar yuklatildi.

"Asakabank" AJda 2020–2024-yillarda moliyaviy hisobotlar bosqichma-bosqich BHXS talablariga moslashtirildi. Moliyaviy hisobotlarda aktivlar va majburiyatlar qayta tasniflandi, sof foyda va kapital ko'rsatkichlari xalqaro mezonlarga muvofiq qayd etildi. Tahlillarga ko'ra, 2021–2023-yillarda bank aktivlari 46 foizga, kredit qo'yilmalari 55 foizga, depozitlari esa 75 foizga o'sdi. Bugungi kunda esa aktivlarning 70 foizidan ortig'i kreditlar ulushiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirishdagi faollikni ko'rsatadi.

Buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari (BHXS) asosida tuzilgan hisobotlar "Asakabank" AJ faoliyatining shaffofligini oshirishga hamda shu bilan bir qatorda xorijiy investorlar ishonchini kuchaytirishga xizmat qildi. 2020-yilda xorijiy investorlar ulushi 18 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib, ularning ulushi 24 foizgacha yetdi. Sof foyda hajmi 1,2 trln. so'mdan 2,5 trln. so'mga oshdi, ROE (*Aktivlar rentabelligi*) 12,5 foizdan 14,5 foizgacha ko'tarildi. Bank hisobotlari "Grant



Thornton" va "EY" (*Ernst & Young Global Limited*) kabi xalqaro auditorlik kompaniyalari tomonidan tasdiqlanmoqda, bu esa xalqaro reyting agentliklari (*Fitch (Fitch Ratings Inc)*, *S&P (Standard & Poor's Financial Services LLC)*) tomonidan "barqaror" bahosini olishga yordam berdi.

Shunga qaramasdan, ushbu jarayonlarda bir qator qiyinchiliklar mavjud bo'lib, ular kadrlarning xalqaro standartlar bo'yicha yetarli malaka hamda ko'nikmalarga ega emasligi, axborot tizimlarining moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar asosida yuritish uchun to'liq moslashtirilmaganligi, yuqori transformatsiya xarajatlari hisoblanadi.

Tahlillar asosida tijorat banklari xodimlari uchun MHXS bo'yicha muntazam seminar va treninglar tashkil etish orqali bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash, moliyaviy hisobotlarni avtomatlashtirish va xalqaro talablar asosida ishlab chiqilgan zamonaviy IT-platfomalarni joriy etish orqali hisob-kitoblarning aniqligi va tezkorligini oshirish, bank balansidagi aktiv va majburiyatlarni xalqaro standartlarga mos qayta baholash orqali investorlarga ishonchli va solishtiriladigan axborot taqdim etilishini ta'minlash, yetakchi auditorlik kompaniyalari bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali bank faoliyatida shaffoflikni oshirish va tijorat banklari xalqaro maydondagi reytinglarni mustahkamlash kabi amaliy tavsiyalar ishlar chiqildi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 1-son BHXSni tatbiq etish "Asakabank" AJ misolida bank faoliyatining shaffofligini oshirdi, investorlar uchun ishonchli axborot bazasini yaratdi va butun bank tizimi uchun metodologik tajriba vazifasini bajardi. Ushbu tajriba O'zbekistonning xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuvini jadallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-fevraldagi PF-5992-son Farmoni – "2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida".
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son Qarori – "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida".
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2021-yil 18-noyabrdagi 20/3-son Qarori – "Tijorat banklarining hisob siyosati va moliyaviy hisobotlariga qo'yiladigan talablar to'g'risida Nizom".
4. "Asakabank" AJning 2020–2024-yillarga oid yillik moliyaviy hisobotlari.
5. International Financial Reporting Standards (IFRS) Foundation. IAS 1 – Presentation of Financial Statements. London, 2020.

6. Grant Thornton International Ltd. O'zbekiston bo'yicha yillik audit hisobotlari, 2020–2024.
7. Ernst & Young Global Limited (EY). O'zbekiston bank sektori bo'yicha tahliliy sharhlar, 2020–2024.
8. Fitch Ratings Inc. Banking Sector Review – Uzbekistan, 2023–2024-yillar hisobotlari.
9. Standard & Poor's Financial Services LLC. Uzbekistan Banking Outlook, 2023.
10. Nobes, C., & Parker, R. (2020). *Comparative International Accounting*. Pearson Education.